O'zbek olimasi tadqiqoti fransuz olimlarining e'tirofiga sazovor bo'ldi

Fanlar akademiyasi tarkibida Yadro fizikasi institutining ilmiy-tadqiqot inshootlari (reaktor, siklotron va boshqalar), Astronomiya instituti rasadxonalari (Maydanak, jumladan, Kitob majmuasi), ikkita botanika bog‘i, respublika seysmik stansiyalar tarmog‘i, Sharqshunoslik instituti qadimiy qo‘lyozmalarining noyob fondi bo‘lib, bular jahon ahamiyatiga ega obyektlardir.

Alohida ta’kidlab o‘tish joizki, yana bir faxrlansak arziydigan Osiyodagi yagona noyob ilmiy inshoot bu yil o‘zining 30 yilligini nishonlagan Materialshunoslik institutidagi Katta quyosh pechi hisoblanadi. Materialshunoslik instituti nisbatan yosh bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda amaliy tadqiqotlar sohasida yetakchilardan biri hisoblanadi. Shunday qilib, institut xodimlari Katta quyosh pechida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va funksional, konstruktiv va yuqori o‘tga chidamli keramika asosi bo‘lgan 150 dan ortiq oksidli materiallar kompozitsiyalarini ishlab chiqdilar va sintez qildilar, ularning termofizik va boshqa xarakteristikalari o‘rganildi.

Zamonaviy materialshunoslikning rivojlanish tendensiyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotning yetakchi sohalarida yangi texnologiyaning ustuvor ishlanmalarining 80% dan ortig‘i yangi materiallar va ularni yaratish bilan bog‘liq yuqori texnologiyalarni yaratish bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda ko‘pgina yangi materiallar ochiq tizimlarda kuchli nomutanosiblik va chiziqli bo‘lmagan sharoitda issiqlik ta’sirida sintez qilinishini hisobga olsak, konsentrlangan quyosh nurlanishidan foydalangan holda yaratilgan materiallar, albatta, qiziqish uyg‘otadi.

O‘tao‘tkazuvchanlik, past haroratlarda ba’zi qattiq elektr o‘tkazuvchan moddalar aylanadigan holat. O‘tao‘tkazuvchanlik hodisa sifatida 1911-yilda G. Kamerlingh Onnes tomonidan kashf etilgan. O‘tao‘tkazuvchanlik — harorat ma’lum bir kritik qiymatga tushganda, ba’zi materiallarning elektr qarshiligini to‘liq va keskin yo‘qotish xususiyati hisoblanadi.Bu shuni anglatadiki, supero‘tkazgich o‘z-o‘zidan juda katta oqimlarni hech qanday quvvatni yo‘qotmasdan o‘tkazishga qodir.

Fanlar akademiyasidagi muhim yangiliklardan biri professor Dilbar Gulyamova yuqori haroratlarda ham o‘tao‘tkazuvchanlik xossalariga ega bulgan material olishga muvvafaq bo‘ldi va bu izlanishlar fransuz olimlarini ham diqqatini tortdi. Bu ilmiy izlanishlar hamkorlikdagi yangi tadqiqotlarga sabab bo’lmoqda. Fransuz olimining o‘zbek olimasining ilmiy izlanishlariga bahosini va bu haqida batafsil ma’lumotlarni UzA Milliy axborot agentligi rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali tez kunlarda xabardor bo‘lishingiz mumkin.